

VA’DAGA VAFO – CHIN INSONIYLIK BELGISI

Mamadaliyev Husanboy Yigitali o’g’li
Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Ijtimoiy - gumanitar fanlar” kafedrasida assistenti
husaynmuhammadaliy638@gmail.com
Tel: +998907727715

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19428187>

Annotatsiya: Mazkur maqolada insonlarni va’ daga vafo qilish, berilgan har bir so’zni ustidan chiqishga urg’u berilmoqda. Shuningdek, va’ daga vafo qilish nafaqat shaxsiy, balki jamiyat oldidagi burchimiz ekanligi ta’kidlangan. Chunki, jamiyatda o’zaro ishonch yo’qoladigan bo’lsa, insoniylikning asosi mehr-oqibatga dahl qilishi keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar; Va’da, lafz, birso’zlilik, saxiy, xayr va hasanot, saxovat, jo’mard, jahlini yutmoq, zakot, qarindosh-urug’lar, oila a’zolar, sadaqa, muruvvat, do’stlik, sadoqat, mardlik, kamtarlik, oliy himmat.

Аннотация: В этой статье подчеркивается важность соблюдения обещаний и выполнения каждого данного слова. Также подчеркивается, что соблюдение обещаний — это не только личный долг, но и долг перед обществом. Ведь, как утверждается, если в обществе будет утрачено взаимное доверие, подорвутся сами основы человечности.

Ключевые слова; Обещание, слово, прямолинейность, щедрость, доброта и добродетель, щедрость, щедрость, контроль гнева, закят, родственники, члены семьи, благотворительность, доброта, дружба, верность, мужество, смирение, высшая доброта.

Abstract: This article emphasizes the importance of keeping promises and fulfilling every word given. It also emphasizes that keeping promises is not only a personal duty, but also a duty to society. Because, it is argued, if mutual trust is lost in society, the very foundation of humanity will be undermined.

Key words: Promise, word, straightforwardness, generosity, goodness and virtue, generosity, generosity, controlling anger, zakat, relatives, family members, charity, kindness, friendship, loyalty, courage, humility, supreme kindness.

Musulmon odamning go’zal fazilatlaridan biri bergan va’dasi ustidan chiqishidir. Lafzida turish imonning bir bo’lagi sanaladi. Vafodor inson el orasida obro’, e’tibor topadi

Va’da har xil bo’ladi. Ba’zilar yomonlikka xizmat qiladi. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): “Kim bir ishga qasam ichsa, keyin u ishda yaxshilik yo’qligini bilsa, darhol qasamiga kafforat berib, yaxshi ishni qilsin”, dedilar (Imom Muslim). Demak, yomonlikka xizmat qiluvchi va’dani buzish gunoh emas, balki savobdir.

Va’ daga vafo qilish har doim ham yengil kechmaydi. Chunki ahdlashish molni sovurish, yaxshi ko’rgan narsadan ayrilishga olib kelishi mumkin. Lekin bu yo’qotish evaziga inson dunyo va oxiratda saodat topadi, Alloh roziligiga erishadi.

Va’dalarning eng ulug’i banda bilan Alloh o’rtasidagi ahddir. Zero, Alloh taolo odamni yaratdi, turli ne’matlar berdi va bu haqiqatni banda bilishi va e’tirof etishini, Allohning mehribonligidan xabarsiz bo’lmasligini, inkor etmasligini xohladi.

Insonning bu ahdga vafo qilishi dunyoda ulug’lik topishiga, oxiratda mag’firat va marhamatga erishishiga asos bo’lishi haqida Alloh taolo bunday marhamat qiladi: “...sizlarga in’om etgan ne’matimni eslangiz, ahdinga vafo qilingiz, toki Men ham sizlarning ahdingizga vafo qilay va Mendangina qo’rqingiz!” (Baqara, 40).

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

Payg‘ambarimiz (s.a.v) shunday dedilar: “Munofiq odamning a’lomatlarini uchta:

1. Qachon gapirsa, yolg‘on gapiradi;

2. Qachon va’da bersa, va’dasini ustidan chiqmaydi (ya’ni, va’da vafo qilmaydi);

3. Unga biror bir narsa omonat qilinsa, omonatga xiyonat qiladi (ya’ni, biror bir narsani omonat qilib berilsa, uni o‘z egasiga qaytarib bermaydi)”.

Sharh: Ko‘rinib turibdiki, munofiqning uch alomati bor ekan. Odamlar bilan suhbatlashganda, biror bir xabarni yetkazganida yolg‘on gapiradi. Buni, albatta, o‘z manfaati uchun qiladi. Ikkinchi belgisi, va’da bersa, uning ustidan chiqmaydi. Bu bilan mas’uliyatni his etmaydi, o‘zida beburdlik illatini shakllantiradi va o‘zgalarni hurmat qilmaydi. Uchinchi belgi – omonatga xiyonat qilish, ya’ni birovning haqiga xiyonat qilishidir. Bu bilan o‘ziga nisbatan boshqalar ishonchini yo‘qotadi.

Madina ahlidan Sa’laba degan kishi ansoriylar bilan suhbatlashib o‘tirganida: “Agar Alloh taolo menga o‘z fazlidan mol-dunyo ato etsa edi, har bir haqdorning nasibasini o‘rniga qo‘yardim, muhtojlarga sadaqalar berardim, qarindoshlarim holidan xabar olardim”, deb va’da berdi. Oz fursatda amakivachchasi olamdan o‘tib, katta merosga ega chiqdi. Ammo bergan va’dalaridan birortasini bajarmadi. Unga tanbeh uchun ushbu oyati karima nozil bo‘ldi: “Ular orasida: “Agarda bizga (Alloh) fazli (boyligi)dan bersa, albatta, sadaqa qilurmiz va solih (kishi)lardan bo‘lurmiz”, deb Alloh bilan ahdlashadiganlar ham bor. Alloh ularga fazlidan berganida esa, (ular) unga baxillik qildilar va yuz o‘girib ketdilar” (Tavba, 75-76).

Dinimizda insonlarni ahdni bajarishga, va’da vafo qilishga undalar ekan. Xususan, tijoratchilar orasida va turli iqtisodiy munosabatlarda eng muhim asos va’dani vaqtida bajarish bo‘lishi kerakligi alohida ta’kidlanadi. Bu masala haqida Alloh taoloning bir necha buyruqlari bor: “...Ahdga vafo qilinglar! Zero, ahd (Qiyomat kuni) so‘raladigan ishdir” (Isro, 34).

Birovning haqiga vafo qilish deyilganida, musulmonning haqi ham va boshqa har qanday din, millat vakilining haqi ham teng tushuniladi. Chunki yaxshilik til, din va millat ajratmaydi. Agar ajratsa, yaxshilik qiluvchi odam bir qavmga saxiylik, boshqa qavmga esa baxillik qilgan bo‘lardi.

Islom ahamiyat bergan va vafo qilish lozim bo‘lgan Alloh nazdidagi haqlardan yana biri qarz olish va uni vaqtida qaytarishdir. Avvalo, o‘ta zarurat bo‘lmaganida qarz so‘ralishi harom qilindi. Zero, qarz qiyomatda qasos olinishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ahdga xiyonat qilish, va’da vafo qilmaslik, so‘zining ustidan chiqmaslik jamiyatlarning buzilishiga sabab bo‘luvchi, odamlar o‘rtasida o‘zaro ishonch yo‘qolishi, omonatlar zoye bo‘lishi va xiyonat yoyilishiga olib boradigan yomon sifatlardandir. Anas roziyallohu anhu rivoyat qiladi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam deyarli barcha xutbalarida: “Omonati yo‘q kishining iymoni yo‘q, ahdiga vafosi yo‘q kishining dini yo‘qdir”, deb aytardilar. Imom Ahmad rivoyati. Munofiqlar sifatlari orasida ham ahdiga vafo qilmaslik sifatini ko‘rishimiz mumkin. “Munofiqning alomati uchta: so‘zlasa yolg‘on so‘zlaydi, va’da bersa vafo qilmaydi, omonat qo‘yilsa xiyonat qiladi” (Buxoriy va Muslim rivoyati). Alloh ahdga vafo qilishni oqil zotlar va payg‘ambarlarning sifatlardan deb ta’rifladi. Payg‘ambarimiz: “Musulmonlar shartlarining ustidan chiqqaylar”, deganlar (Imom Buxoriy). Ahd har xil bo‘ladi. Ba’zilar yomonlikka xizmat qiladi, ba’zisi esa yaxshilikka. Rasululloh: "Kim bir ishni qilishga qasam ichib, keyin u ishda yaxshilik yo‘qligini bilsa, darhol qasamiga kafforot berib, keyin yaxshisini qilsin", dedilar (Imom Muslim). Demak, yomonlikka xizmat qilish uchun ahdni buzish gunoh emas, balki savobdur.

Payg‘ambarimiz s.a.v.: "Qiyomat kunida ahdini buzgan har bir kishi yonida uni tanitib turadigan bayroq bo‘ladi” deganlar.

Imom Shofe’iy rahimahullohdan “Biror kishining yolg‘onchi yoki rostgo‘y ekanini qanday bilasiz?”, deb so‘rashganida, “U bilan uchrashuv belgilayman. Agar vaqtida kelsa, u rostgo‘ydir. Agar kechikib kelsa, u yolg‘onchidir”, deb javob bergan ekanlar.

Axloq kitoblarida va’daga vafo qilmoq mard kishilarning ishi ekani ta’kidlanadi.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy vafo va sadoqatni insoniyat boshidagi jig’ada porlab turgan gavhardir, deb ta’riflagandi. Buyuk shoir yana uqtirib o’tgan ediki, agar hayot chamanida vafo guli bo’lmasa, u go’zal va orombaxsh bo’la olmaydi.

Sohibqiron Amir Temur esa shunday deydi: “Qaysi bir sipohiy tuz haqi va vafodorlikni unutib, xizmat vaqtida o’z sohibidan yuz o’girib, mening oldimga kelgan bo’lsa, unday odamni o’zimga eng yomon dushman deb bildim”.

Endi o’ylab ko’raylik: bir kishining chaqirig’iga va’da qilamizu bormaymiz yoki belgilangan soatda bora olmaymiz. U kishi o’z ishlarini tashlab, kutib turadi va xavotirlanadi. Biz uning ishdan qolgani va xavotir olganiga e’tibor qilmaymiz. “Va’da – qarz”, va’daga xilof esa munofiqlik ekanini xayolimizga ham keltirmaymiz. Hatto ko’pimiz bajarish niyatida emas, balki shunchaki suhbatdoshning so’zini qaytarishdan uyalib va’da berib yuboraveramiz. Bu hol va’dada turmaslik emas, balki va’dabozlik niyati bilan bo’lganidan ikki karra qabohatdir. Va’dada turmaslikning gunohi qancha katta bo’lsa, unga vafo qilishning savobi ham shunchalik ulug’dir.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA ELEKTRON MANZILLAR:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri hilol”. Toshkent – “Hilol nashri”.2017.

2. Muhammad Abiy Homid G’azzoliy, Ihyau ulumid din, amru ma’ruf nahiy, munkar kitobi 3- jild, Bayrut.

3. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Toshkent 2006. “Toshkent Islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi 2006.

4. Mahammadovna, S. I. (2021). Needs and factors for developing professional and creative abilities of students of higher educational institutions. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2200-2209.

5. Mahammadovna, S. I. (2023). Features of Cluster Design in Modern Paradigms of Education. *Telematique*, 22(01), 348-355.

6. Sirojiddinova, I. (2022). Metodika smeshannoy otborki pri kompleksnom proyektirovanii professionalnoy podgotovki budущix injenerov. *Obshchestvo i innovasii*, 3(7/S), 87-92.

7. <https://kukaldosh.uz/12/11/2024/13875>

8) <https://namozvaqtlari.com/savol-javoblar/29768-men-tomon-jursa-men-u-tomon-juguraman-degan-ojat-bormi.html>

9) <https://savollar.muslimaat.uz/maqola/243>